

**AFG'ONISTON O'ZBEKLARI NUTQIDA BOLALAR QO'SHIQLARINING O'ZIGA
XOS IFODASI****Asaludin Bawer**

Balkh davlat universiteti

Turk tili va adabiyoti kafedrası mudiri (PhD).

Email: asludin.bawar9@gmail.com, Telephone: +93787046824<https://doi.org/10.5281/zenodo.15570065>

Annotatsiya. Maqolada Afg'oniston o'zbeklari bolalar qo'shiqlarining madaniy va ma'naviy ahamiyati tahlil qilinadi. Og'zaki ijod orqali yosh avlodning tarbiyasi, axloqiy qadriyatlari va jamiyatdagi o'rni ifodalanadi. "Oq terakmi, ko'k terak?" va "Yo Ramazon" qo'shig'lari misolida bolalarning ijtimoiy kamoloti, qobiliyatlari va ularni to'g'ri yo'naltirish muhimligi ta'kidlanadi. Maqola xalq og'zaki merosining bolalar tarbiyasidagi roli hamda uning madaniy yodgorlik sifatidagi o'rni haqida so'z yuritadi.

Kalit so'zlar: Afg'oniston o'zbeklari, bolalar qo'shiqlari, og'zaki an'ana, madaniy meros, axloqiy tarbiya, ijtimoiy rivojlanish.

Abstract. The article analyzes the cultural and spiritual significance of children's songs among the Uzbek community in Afghanistan. Through oral creativity, it reflects the upbringing of the younger generation, their moral values, and their role in society. Using the songs "Oq terakmi, ko'k terak?" and "Yo Ramazon" as examples, the article emphasizes the importance of children's social development, abilities, and proper guidance. It also discusses the role of folk oral heritage in children's upbringing and its place as a cultural monument.

Keywords: Afghan Uzbeks, children's songs, oral tradition, cultural heritage, moral education, social development.

Kirish

Xalq og'zaki ijodi bu millatning ko'ngil qo'shig'i, qalb ohangi bo'lib, yozma adabiyotning yuzaga kelishi va yuksalishida ilhom manbai sifatida xizmat qilgan. Har bir el-yurtning o'tmishi, orzusi, azmu shijoati ana shu og'zaki merosda yashaydi. Badiiy adabiyot esa jamiyatning ruhiy va ma'naviy olamini aks ettirib, uning taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlanadi. Bu borada Mahmud Koshg'ariyning bebaho merosi "Devonu lug'otit-turk" asarini alohida e'tirof etish joiz. XI asrning zabardast tilshunosi bo'lmish bu ulug' zot o'z asarida turkiy xalqning boy madaniy xazinasi, adabiy merosi va og'zaki ijod namunalarini sevgi bilan jamlagan. Asarda nafaqat o'sha davr adabiyoti, balki qadim zamonlardan og'izdan og'izga, yurakdan yurakka o'tib kelgan maqollar, rivoyatlar, qo'shiq va she'rlar o'ziga xos joziba bilan tasvirlangan. Ayniqsa, mehnat jarayonlarini, qahramonlik voqealarini, marosim va fasllarga bog'liq qadimiy qo'shiqlar yurakni to'lqinlantiradi.

Bu kuylar xalq qalbining tovushi, tarixning tilga kirgan ohanglaridir. Azaldan xalq donishmandligining yorqin yodnomalari bo'lmish Urxun Enasoy bitiklari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig'i" ya'ni "Saodatga eltuvchi ilmu hikmat", Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub "Hibat-ul haqoyiq" "Haqiqatlar tuhfasida" til, ilm-fan va axloq-odob masalalari keng va teran yoritilgan. Bu asarlar har bir satrida xalq tafakkuri, hayot falsafasi va ma'naviy qadriyatlari nafosat ila jilvalanadi. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutafakkirlarning bitiklari esa, xuddi sharq tongining sahar yeliday, ko'ngillarga poklik, sabr va haqiqat ruhi olib kiradi. Haydar Xorazmiy, Qutb, Durbek, Atoiy, Sakkokiy va Lutfiy kabi mahoratli shoirlar esa xalq hayotining quvonch-u iztirobini, orzu-umidlarini samimiy tarzda aks

ettirib, adabiyotimiz mulkida o'chmas iz qoldirganlar. Aynan ana shu mumtoz ijodiy an'ana, nazm mulkining zaminini shunday barakali qildi-ki, u buyuk so'z sultoni Alisher Navoiydek dahoning yetishib chiqishiga mustahkam asos bo'ldi. Ular yaratgan ijodiy muhit Navoiyga ruh, ilhom va yo'l ko'rsatuvchi nur bo'lib xizmat qildi. O'zbek bolalar adabiyoti nafaqat estetik zavq beruvchi vosita, balki axloqiy va ma'naviy tarbiyaning muhim manbai sifatida ham xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodiga mansub dostonlar xususan, "Ramazon" dostoni yosh avlodga ilm, axloq va diniy qadriyatlar haqida sodda, ammo chuqur ma'lumot beruvchi badiiy asardir. Ushbu doston orqali bolalar nafaqat Ramazon oyining ahamiyati bilan tanishadilar, balki sabr, saxovat, halollik kabi insoniy fazilatlarni ham o'zlashtiradilar. An'anaga ko'ra, Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab, kechki iftorlikdan so'ng o'g'il bolalar qo'llarida umid va quvonch bilan uyma-uy aylanar, qalblarni iliqtirgan "Yo Ramazon" qo'shiqlarini kuylab, mo'jizaviy bahorni butun mahallaga olib kirardi. Har bir hovlining oldida to'xtab, o'sha uy egalari haqida tilga olinmaydigan ijobiy fazilatlarni madh etuvchi, samimiy va chuqur mazmunli misralarni kuylab, an'anaviy "Yo Ramazon" marosimi uyg'onardi. Bu qo'shiqlar o'zbek xalqining marosim folkloridagi eng qadimiy janrlardan biri bo'lib, Afg'oniston va O'zbekistonning barcha viloyatlarida jonli ravishda saqlanib keladi. Xalq tilida esa "Yo Ramazon", "Rabiman", "Rabigon", "Rayvon", "Ramazon", "Ravan", "Rabibon" va "O'rebezon" kabi ko'plab nomlar bilan mashhur. Ramazon oyining muqaddas kunlarida ana shunday qo'shiqlarni kuylagan bolalarga "ramazonchilar" yoki "rayvanchilar" deb hurmat bilan murojaat qilinar edi. Ularning ovozlari kechaning tinchligini bezar, qalblarga mehr va bag'rikenglik urug'lari sochar, yurtning barcha burchaklarida Ramazonning muborakligi haqida og'zaki hikoyalar aytar edi.

Yo Ramazon

Ro'zaning uchni tutib keldik sizga
Ro'zaning zakat ni biring bizga
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Robbi ban itib keldim ishingizga
Xudoyim o'g'ul bering beshkingizga
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Jangaldan chiqqan xuroz ning quyirigi
Robbi ban itmag' xudoni buyirigi
1-rasm. Ramazon qo'shig'ini
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon

aytish jarayonidan lavha

Assalamu alaykum mah Ramazon

Payg'ambarning bir o'g'li Ya'qub ekan
Un ikki turki kitob o'qib ekan
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Un ikki turki kitob biri qani?



Bolturki musulmonlar biri qani?
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Ro'za ham o'tor kunlik mehmon dor
Ro'za ni tutgan yigitlar pahlavon dor
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Taminingizning arqasida katta past
Bu o'yinni ega sini g'ayrati katta
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Taminingizning arqasida oy ko'rinar
Bu o'yinni egalari boy ko'rinar
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Bu o'yinni to'yilg'i qaptarxona dor
Biri uchsa, biri kelib qunga dor
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

Robbi ban itganimni savobi bor
Bir-birimsingga ne g'amim bor
Robbi ban ya Robbi ban Yarmozon
Assalamu alaykum mah Ramazon

OQ TERAQMI, KO'K TERAQ?

—Oq terakmi, ko'k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Gul terdik dasta - dasta,
 Bir-biriga payvasta.
Bizga kerak odobli,
A'lochi qiz Shohista!
— Oq terakmi, ko'k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Oy kerag-u oy kerak,
To'lib oqqan soy kerak.
Bizga „Maqto'v qog'ozi“
Olgan Hasanboy kerak!
— Oq terakmi, ko'k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Maktab oldi bog' ko'cha,
Bir yoni gulbog' ko'cha.

Bizga kerak shaxmatda
Nom qozongan Xadicha!
— Oq terakmi, ko‘k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— To‘p o‘ynar Ra‘no, Tolib
Biri biridan g‘olib.
Bizga kerak chopishda
Hech tengi yo‘q Mutallib.
— Oq terakmi, ko‘k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Ustozingdan ta‘lim ol,
Kasb, hunar o‘rganib qol.
Bizga kerak pazanda,
Chevar, notiq Suymaxol!
— Oq terakmi, ko‘k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Ariq bo‘yida andiz,
Daryo tubida qunduz.
Bizga kerak alpinist
Bo‘laman, degan Yulduz!

Qo‘shiqning mavzusi va asosiy g‘oyasi

Qo‘shiq mavzusi o‘zbek xalqining tarbiya va ma‘naviyatga e‘tibor berishi, yoshlarni tarbiyalashda jamiyatning o‘rni, yoshlarning qobiliyatlari va ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish haqida. Har bir misra, har bir satr yosh avlodning qaysi sohada muvaffaqiyatga erishishini, kimning yetishishini tilab, ular uchun kamolot va orzu-havaslar bildiradi. Qo‘shiqning strukturasi va shakli bu qo‘shiq savol-javob shaklida qurilgan, bunda doimiy ravishda “Oq terakmi, ko‘k terak?” degan so‘roq qaytariladi. Bu so‘roq orqali asar voqealari rivojlanib boradi.

Har bir javob qismida jamiyat uchun kerakli sifat yoki shaxslar ta‘riflanadi odobli qiz, maqtov qog‘ozi olgan Hasanboy, shaxmatda nom qozongan Xadicha va boshqalar. Bu shakl bolalar qo‘shig‘iga xos, o‘yin shaklida, yodda qoladigan tarzda ifodalangan.

Ramziy ma‘nolar: “Oq terak” va “ko‘k terak” bu ikki turdagi daraxtlar ramz sifatida qo‘llangan. Odatda, terak — go‘zal, bardoshli daraxt hisoblanadi. Oq va ko‘k ranglar esa farqlilik, turli imkoniyatlar yoki yo‘nalishlarni bildiradi. Bu savol yoshlar oldidagi tanlov, kelajakda kim bo‘lishlari, qanday yo‘l tutishlari haqida.

Har bir javobda turli sohalardan iqtidorli va kamolotga intilayotgan bolalar nomi va ularning qobiliyatlari tilga olinadi. Bu yoshlarga bo‘lgan umid va ishonchni ifodalaydi.

Til va uslub: Qo‘shiq tilida an‘anaviy xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan sodda, oson yodda qoladigan va takroriy ifodalar ko‘p ishlatilgan. “Dasta-dasta,” “bir-biriga payvasta” kabi so‘z birikmalari ohangdorlik va ritm hosil qiladi. Bunda bolalarning dunyoqarashi, o‘zaro muloqoti ochiq va samimiy ifodalanadi. Madaniy va ijtimoiy kontekst: Qo‘shiq Afg‘oniston o‘zbeklari muhitida yaratilgan, ularning bolalar tarbiyasi, madaniyati va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Qo‘shiqda ta‘lim, sport, hunarmandchilik kabi sohalarda o‘z o‘rnini topish zarurati, shuningdek, odob-axloq va a‘lo darajadagi ilm olishga urg‘u berilgan. Bu esa bolalar tarbiyasida ma‘naviy yetuklik, bilimdonlik va jamoaga foydali bo‘lishni nazarda tutadi.

Qo‘shiqdan kelib chiqadigan xulosa

“Oq terakmi, ko‘k terak?” qo‘shig‘i yosh avlodning tarbiyasi, ularning ijtimoiy va ma‘naviy kamoloti haqida tushuncha beradi. Har bir bola o‘z qobiliyatiga qarab jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, odob-axloqli, bilimli, hunarmand yoki sportchi bo‘lishi kerakligi ta‘kidlanadi.

Qo‘shiqning takroriy shakli va ohangi bolalar uchun nafaqat ko‘ngilochar, balki tarbiyaviy maqsadda ham xizmat qiladi.

TEZ AYTISHLAR

Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi.

Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft cho‘p ko‘pmi?

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

Tez aytishni tez-tez ayt.

Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.

Boqi bog‘ga, Soqi tog‘ga boradi.

Saodat soatini soatsozga sozlatdi.

Qo‘sh qo‘lqop, qo‘shovi ham bo‘sh qo‘lqop.

Gulsara gul saralab, gul sanadi.

Tubsiz dengiz dedingizmi? Dengiz tubsiz dedingizmi?

Olti juft oq chinni choynakka to‘rt juft ko‘k qopqoq yopsa bo‘ladimi?

O‘ktam ko‘m-ko‘k, ko‘rkam ko‘klam rasmini ko‘p ko‘k qalamda chizmoqchi.

Zanjir, sarjin, anjir.

Bir tup tut, tutning tagida bir tup turup. Tut turupni turtib

turiptimi, turup tutni turtib turiptimi? Shotursunning shotutini shitirlatgan shamol Sharifning shaftolisini shitirlatdi.

Qurilishga terak kerak, Demak, ekmoq kerak terak. Oq choynakka ko‘k qopqoq, Ko‘k choynakka ko‘k qopqoq. Erkin egatga ertaki ekinni ertalab ekdi. Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloqcham uzun quloq¹.

Xulosa

Maqola Afg‘oniston o‘zbeklarining bolalar qo‘shiqlaridagi o‘ziga xos ifodani, ularning milliy madaniyati va og‘zaki ijod an‘analaridagi o‘rni hamda ahamiyatini yoritadi. Bolalar qo‘shiqlari xalqning ma‘naviyati, axloqiy qadriyatlari, tarbiyasi va jamiyatdagi o‘rnini aks ettiradi. “Oq terakmi, ko‘k terak?” “Yo Ramazon” qo‘shig‘lari misolida, maqolada yosh avlodning ijtimoiy va ma‘naviy kamoloti, qobiliyatlarini rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘naltirish muhimligi ta‘kidlanadi. Ushbu qo‘shiqlar orqali bolalarga odob-axloq, bilim, sabr, saxovat kabi fazilatlar singdiriladi, ularning jamiyatda foydali shaxs bo‘lib yetishishi rag‘batlantiriladi.

Shuningdek, maqola og‘zaki meros va badiiy ijodning milliy madaniyatni saqlash hamda rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu qo‘shiqlar bolalar uchun nafaqat ko‘ngilochar, balki tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

REFERENCES

1. Erkinov, A. (2015). *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. Toshkent: Sharq.
2. Qodirov, S. (2018). *Bolalar tarbiyasida xalq ijodining o‘rni*. Toshkent: Fan va texnologiya.

¹ Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (majmua). – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – B. 16.

3. Nazarov, T. (2020). "Og'zaki ijod va yosh avlod tarbiyasi" — *Madaniyat va ta'lim* jurnal, 3(12), 45-52.
4. Karimova, L. (2017). *O'zbek xalq qo'shiqlari: tarixi va tahlili*. Samarqand: Universitet nashriyoti.
5. Saidov, R. (2019). "Madaniy meros va bolalar tarbiyasi" — *Milliy meros* jurnal, 1(5), 78-85.
6. Abdullaev, J. (2016). *Afg'oniston o'zbeklari madaniyati va an'analari*. Toshkent: Akademiya nashriyoti.
7. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (majmua). – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – B. 16.
8. Humayun, Nadim Muhammad. "Etnografizmlarning o'zbek badiiy matnlarida qo'llanishi." *Science and Education* 4.6 (2023): 953-958.
9. Nadim, H. "Afg'oniston o'zbeklari to'y-marosim etnografizmlarining forsiy lug'atlardagi ko'rinishlari." NamDU ilmiy axborotnomasi (2021).